

**JINOYAT ISHLARIDA DALIL TUSHUNCHASI VA ULARNI TO'PLASH VA
MUSTAHKAMLASH FAOLIYATI**

Isroilov Shaxzod Isomiddin o'g'li

Abstrakt: mazkur maqolada dalil o'zi nima ekanligi, ularning turlari hamda dalillarni to'plash va mustahkamlash faoliyatining huquqiy asoslari, shuningdek jinoyat ishlarida qonuniylikni ta'minlashda dalillarning o'rni, ulardan foydalanishning prosessual tartibi ochib berilib, dalillarni to'plash va mustahkamlash institutini takomillashtirishga oid tavsiyalar ilgari surilgan.

Abstract: This article explains what pre-trial dispute resolution is, its types and legal bases, as well as how to implement pre-trial dispute resolution in this crime-fighting policy, and analyzed the prospects and opportunities for improving the effectiveness of this area.

Kalit so'zlar: dalil, sud tergovi, dalillarni tershirish, dalillar nazariyasi, isbotlash, faktik ma'lumotlar, dalillarni to'plash va mustahkamlash faoliyati, maqbullik va boshqalar.

Key words: "evidence, judicial investigation, examination of evidence, theory of evidence, proof, factual information, activities of collecting and strengthening evidence, admissibility, etc.

Barchamizga ma'lumki, dalil – sud ishlarida isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni tasdiqlaydigan yoki inkor etadigan turli faktik ma'lumotlar hisoblanadi³³. Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergen-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi³⁴.

Jahon mamlakatlarida jinoyat protsessi ishtirokchilarining dalillarni to'plash va mustahkamlash borasidagi vakolatlari, huquq va majburiyatlarini xalqaro andozalarga mos tarzda belgilash, qonunga xilof usullar bilan dalillarni to'plash va mustahkamlash holatlarining oldini olish choralar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, 170 dan ortiq davlatlar ratifikatsiya qilgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro pakt3da ham hech kim asossiz hibsga olinishi mumkin emasligi (9-modda), aybi isbotlanmagan shaxs aybsiz hisoblanishi, o'zining himoyasiga tayyorlanish uchun yetarli vaqt va imkoniyatga ega bo'lish, guvohlarga savol berish, o'ziga qarshi ko'rsatuv bermaslik va boshqa huquqlarga egaligi belgilangan (14-modda).

Respublikamizda ham jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni to'plash va mustahkamlash jarayonida inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, tortishuv tamoyilining amalda ro'yobga chiqarilishiga erishish, tergov-surishtiruv jarayonida inson qadr-qimmatining kamsitilishiga, huquqlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslik borasida, shuningdek sohaga xalqaro standartlarni joriy etishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

³³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dalil>

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Жиноят – процессуал кодекси. <https://lex.uz/docs/111460>.

Biroq, sud-tergov amaliyoti isbot qilishning birlamchi va asosiy bosqichi hisoblangan dalillarni to‘plash bosqichida ham nazariy, ham amaliy jihatdan muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Xususan, sud statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra, **2020-2022-yillar va 2023-yilning 9 oyi** davomida jami **3 672** nafar shaxs oqlangan bo‘lib, ularning **415** nafariga oid ishlar bo‘yicha dalillar nomaqbul deb topilganligi sababli oqlov hukmlari chiqarilgan (mazkur ishlarning **61,6 foizi** prokuratura, **27,9 foizi** ichki ishlar organlari tergoviga taalluqli bo‘lgan).

Bu holat jinoyat protsessi yakunida qabul qilinadigan qarorlarning qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishiga bevosita ta’sir qiluvchi dalillarni to‘plash jarayonini ilmiy jihatdan kompleks o‘rganishni, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha asosli takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligidagi jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning aybdorligi dalillar orqali isbotlanishi mustahkamlangan. Bu esa jinoyat-protsessual qonun normalariga qat’iy amal qilgan holda belgilangan talablar asosida dalillarni to‘plash orqali jinoyatlarni tez va to‘la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berish hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etish, qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minalashni kafolatlaydi.

- guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko‘rsatuvlari,
- ekspertning xulosasi,
- ashyoviy dalillar,
- ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar,
- tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar kiradi

Agar tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari faqat qonun talablariga muvofiq olingan bo‘lsa, ushbu Kodeks normalariga muvofiq tekshirilgan va baholanganidan keyin hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining yoki tezkor-qidiruv tadbirida ishtiroy etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo‘lganligidan dalolat bersa, ushbu natijalar dalil sifatida tan olinishi mumkin³⁵.

«O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida»gi PF-4947-son Farmonida sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish belgilangan»³⁶. Bu sud-tergov faoliyatini raqamlashtirishni yanada tezlashtirish imkonini beradi.

Lekin biz axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy qilish bilan birga ulardan vujudga keladigan elektron dalillar masalasi ochiqligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga jinoyat-protsessual qonunchilikda elektron dalillarni aniqlash va olish, ko‘zdan kechirish, ekspertizadan o‘tkazish, nusxa olish, saqlash, jinoyat ishi materiallariga qo‘sish va yo‘q qilishning protsessual tartibini aks ettirish zarur.

³⁵ Ўзбекистон Республикаси Жиноят – процессуал кодекси. <https://lex.uz/docs/111460>.

³⁶ <https://lex.uz/docs/3107036>

Bu borada **elektron dalil** deb – jinoyat ishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan elektron hujjatlar, internet jahon axborot tarmoqlari, yozuvli, multimediali va ovozli xabarlar, ma’lumotlar bazalari va haqiqiyligini aniqlash imkonini beradigan elektron shakldagi boshqa ma’lumotlar deb hisoblanadi.

Shuningdek, dalillarning eng muhim sharti bu ullarning maqbulligi. Chunki JPK 95¹-moddasiga ko‘ra, agar faktik ma’lumotlar qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo‘li bilan yoxud JPK talablari buzilgan, shu jumladan quyidagi hollarda olingan bo‘lsa maqbul emas deb topiladi:) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiyonoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kansituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llagan holda;

2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo‘li bilan;

3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga bo‘lgan huquqlari, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

4) jinoyat ishi bo‘yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida;

5) noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo‘lmagan manbadan;

6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdag, dastlabki tergovdagi sudda dalilar majmui bilan o‘z tasdig‘ini topmagan ko‘rsatuvlaridan³⁷.

Dalillarni to‘plash tergov harakatlari, sud harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish orqali to‘planishi qonun normalarida belgilangan va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdar shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi ushbu harakatlarni o‘tkazish vakolatiga ega. Jinoyat ishiga oid shunday ma’lumotlar borki ular tegishli davlat organlari, korxona, muassasa, tashkilotlarda saqlanadi. Masalan: Yetkazilgan ziyonni miqdorini aniqlash bilan bog‘liq ma’lumotlaning ayrimlari moliya organlari, bank muassasalarida saqlanadi. Ushbu ma’lumotlarni olish uchun JPKning 306- moddasi ikkinchi qismida mulkiy ziyonni miqdorini aniqlash uchun “... zarurat tug‘ilganda buning uchun moliya organlaridan va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi buyudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limlaridan hisob-kitob talab qilib oladi” -deb mustahkamlab quyilgan. Ushbu ma’lumotlarni olish uchun tergov harakatlarini o‘tkazish shart emas. Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdar shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, sud ushbu ma’lumotlarni so‘rovnama yuborish orqali olish vakolatiga ham eganligi belgilangan.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib dalillarni to‘plash faqat tergov va sud harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish orqali emas balki protsessual harakatlar orqali ham amalga oshiriladi. Bu esa dalillarni to‘plash tushunchasida bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Xozirgi kunga qadar dalillarni to‘plash tushunchasiga JPKda ta’rif berilmagan. Faqat dalillarni to‘plash vakolatiga ega bo‘lgan sub’ektlar tomonidan ularni to‘plash vositalari ko‘rsatib o‘tilgan.

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protcessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori. 24.08.2018 yildagi 24-sod

Yuqoridagi fikrlar dalillarni to‘plash bo‘yicha yagona tushuncha qonunchilikka kiritilishini taqozo etadi

Isbot qilish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar vakolatlarining mazmuni dalillarni to‘plash atamasi ularni mustahkamlashni o‘z ichiga qamrab ololmasligini ko‘rsatadi. Xususan, JPK 87-moddasiga ko‘ra, dalillarni to‘plash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud va himoyachi tomonidan amalga oshiriladi, demak himoyachi dalillarni to‘plash huquqiga ega emas. JPK 87-moddasidagi subyektlarning umumiy jihatini inobatga olgan, ya’ni, ularning barchasi dalillarni aniqlashi yoki olishi mumkin. Shu orqali dalillarni to‘plash deganda aynan nimani tushunish kerakligini bildirgan. Shunga ko‘ra, isbot qilish to‘rt bosqichdan, ya’ni **dalillarni to‘plash, mustahkamlash, tekshirish va baholash**dan iborat ekanligini asoslaydi. Bundan tashqari, dalillarni to‘plash va mustahkamlashni ajratish orqali, qonundagi tushunmovchilikni bartaraf etilib, “himoyachi – dalillar to‘plash subyekti hisoblanadi” deb aytish imkoniyati yaratiladi, deb qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda odil sudlovnii amalga oshirish bo‘yicha zamonaviy va samarali tizimni joriy etish, sud-tergov faoliyatini takomillashtirish, jinoyat protsessida dalillarni to‘plash bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va elektron dalillarni to‘plash faoliyatini yanada takomillashtirish, dalillarni to‘plashga doir qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish hamda jinoyat ishi bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni sinchkovlik bilan, to‘la va xolis tekshirilishini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят Кодекси. Расмий нашр. Т.: Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги, 2016, 383 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят – процессуал кодекси.
<https://lex.uz/docs/111460> .

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori. 24.08.2018 yildagi 24-sон

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 августдаги «Судтергов фаолиятида шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини химоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6041-сон Фармони //
<https://www.lex.uz/docs/4939467> .

Ўзбекистон Республикаси жиноят ишлари бўйича судларнинг 2017–2020 йиллар ҳамда 2021 йил биринчи чорагидаги фаолият якунлари бўйича асосий кўрсаткичлари // https://stat.sud.uz/file/2021/4-27/jib_2021_03.pdf.

5. <http://www.lex.uz> (O‘z.R. qonun hujjatlari to‘plami)
6. <http://www.gov.uz> (O‘z.R. Hukumati portalı)
7. <http://www.jstor.org>. (Huquqiy jurnallar to‘plami)
8. <http://www.consultant.ru>
9. <https://ec.eurora.eu>
10. <https://www.refworld.org>